

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024- yil 24 may dagi
112 - son buyrug'iga
Ilova

Iste'mol tovarlari resursida import ulushini baholash bo'yicha uslubiy nizom

Iste'mol tovarlari resursida import ulushini baholash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) iste'mol tovarlari resursida import ulushini baholash bo'yicha hukumat tomonidan so'nggi yillarda import o'rnini bosuvchi iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni yanada rag'batlantirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni tizimli monitoring qilish hamda import o'rnini bosish salohiyatini baholash uchun kerakli ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda–GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Nizom GSBPM modelining qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Nizom quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash uchun mo'ljallangan:

a) Iste'mol tovarlari resursining umumiy hajmini:

- oziq-ovqat tovarlar resursining umumiy hajmini;
- nooziq-ovqat tovarlar resursining umumiy hajmini.

b) Iste'mol tovarlari resursi umumiy hajmida importning ulushini:

- oziq-ovqat tovarlar resursi umumiy hajmida importning ulushini;
- nooziq-ovqat tovarlar resursi umumiy hajmida importning ulushini.

Tovarlar hajmi va importning ulushi bo'yicha ko'rsatkichlar ushbu uslubiy nizomda jami respublika miqyosida va yillik davriylikda hisob-kitob qilinadi.

3. Mazkur uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Iste'mol tovarlari¹ – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat tovarlari. Bu – inson ehtiyojlarini bevosita qondirishga hamda oilaviy va shaxsiy iste'molga mo'ljallangan tovarlardir.

Sanoat tovarlaridan tashqari, iste'mol tovarlariga asosiy qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan oziq-ovqat tovarlari ham kiradi va ularning balans ma'lumotlaridan ushbu uslubiy nizomda foydalaniladi².

Iste'mol tovarlari oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlariga bo'linadi.

Oziq-ovqat tovarlari³ – iste'mol qilinadigan (oziq-ovqat) mahsulotlarni, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bu tabiiy yoki qayta ishlangan shakldagi inson tomonidan iste'mol qilinadigan oziq-ovqat (shu jumladan, bolalar ovqatlari, parhez ovqatlar), saqichlar, oziq-ovqat va biologik faol qo'shimchalar uchun ishlatiladigan mahsulotlar. Shu bilan birga, oziq-ovqat tovarlariga vino-aroq va pivo mahsulotlari ham kiradi.

Nooziq-ovqat tovarlar – tayyor to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechaklar, poyabzallar, chemodanlar, sakvoyajlar, ayollar sumkalari va shunga o'xshash buyumlar, maishiy asboblari, sport tovarlari, o'yinlar, o'yinchoqlar va asosan shaxsiy iste'mol uchun foydalaniladigan boshqa nooziq-ovqat tovarlarni o'z ichiga oladi.

Iste'mol tovarlari resursi – mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan, import qilingan tovarlar va mavjud zaxiralardagi tovarlarni jalb qilinishi hamda oraliq iste'mol qilingan va eksport qilingan chakana savdoga kelib tushuvchi iste'mol tovarlardir.

Tovarlar ishlab chiqarish – hisobot davrida iqtisodiyotning rezident-birliklari ishlab chiqarishi natijasida ishlab chiqilgan tovarlarning umumiy hajmidir.

Tovarlar importi – qayta eksport majburiyati olinmagan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelingan tovarlar. Tovarlar importi importyor davlatning franko-chegara (SIF) qiymatida hisobga olinadi, ya'ni importyor-

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 29- avgustdagi 31- son qaroriga ilova "Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom". Ushbu uslubiy nizomda keltirilgan atama va tushunchalar faqatgina iste'mol mahsulot resurslari bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirishda foydalaniladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 30- apreldagi 84- son buyrug'iga ilova "Natura holidagi asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik balansini tuzish bo'yicha uslubiy nizom".

³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 29- avgustdagi 31- son qaroriga ilova "Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom".

davlat chegarasigacha bo'lgan transport va sug'urta xarajatlari tovar qiymatiga qo'shiladi.

Tovarlar eksporti – qayta import qilish majburiyati olinmagan O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar. Tovarlar eksporti eksportyor–davlat chegarasida franko–chegara (FOB) qiymatida hisobga olinadi, ya'ni eksportyor–davlat chegarasigacha bo'lgan transport xarajati tovar qiymatiga qo'shiladi.

Oraliq iste'mol⁴ ishlab chiqarish jarayonida xarajat sifatida iste'mol qilingan tovarlar hajmini o'z ichiga oladi. Bunda tovarlar boshqa tovarga aylantirilgan yoki to'liq ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan bo'lishi mumkin.

“Iste'mol tovarlari” turkumini shakllantirishda quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalanildi:

a) BMT va MDH Statistika komissiyasining Xalqaro savdo ma'lumotlarini standart tasniflagichining keng iqtisodiy kategoriyali tovarlarining bo'limlariga asoslangan tavsiyalari;

b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlari nomenklaturasi (TIF TN – 2017);

d) iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT).

Ushbu uslubiy nizomda 1-ilovaga muvofiq iste'mol tovarlari guruhlarini ro'yxatidan foydalaniladi.

II bob. Iste'mol tovarlari resursini balans hisob-kitobi

4. Tovarlar resursi miqdorini aniqlash asosida uning barcha manbalarini hisobga oladigan balans usulidan foydalaniladi:

$$T_r = Z_b + I_{ch} + I - E - O_i - Z_o$$

T_r – iste'mol tovarlari resursi;

Z_b, Z_o – ishlab chiqaruvchi korxonalar, ulgurji va chakana savdo tashkilotlarida tovarlarning mos ravishda hisobot yilning boshiga va oxiriga zaxiralar miqdori;

I_{ch} – tovarlar ishlab chiqarish;

I – tovarlar importi;

E – tovarlar eksporti;

O_i – oraliq iste'mol.

⁴ «Milliy hisoblar tizimi - 2008» (MHT-2008) 6.213- band.

5. Iste'mol tovarlarining import (eksport) hajmlarini aniqlash "Iste'mol tovarlari" guruhi tasniflagichi orqali Davlat bojxona qo'mitasining ma'lumotlari hamda tashqi savdo hajmlari bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish uslubiyati⁵ asosida amalga oshiriladi.

6. Tashqi savdo to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagilardan tashkil topadi:

– Davlat bojxona qo'mitasining tashqi savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilar tomonidan to'ldirilgan bojxona yuk-deklaratsiyalari asosida olingan tashqi savdo ma'lumotlari;

– O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralarini bosib o'tmaydigan tovarlar importi (eksporti) hajmlari; milliy (xorijiy) transport vositalarining xorijiy (milliy) chegaralarida sotib olingan iste'mol tovarlar;

– Statistika agentligining jismoniy shaxslar tomonidan deklaratsiya to'ldirilmaydigan yoki boj to'loviziz tovarlarni olib kelish va olib chiqish bo'yicha hisob-kitoblari⁶.

7. Tovarlarni resursida import ulushi (I_u) import qilingan iste'mol tovarlar hajmini jami iste'mol tovarlar resursiga nisbati orqali aniqlanadi va foizda ifodalanadi:

$$I_u = \frac{I}{T_r} * 100 \%$$

Iste'mol tovarlari resursidagi import ulushi oziq-ovqat va nooziq-ovqat guruhlari bo'yicha qiymat ko'rinishida hisoblanadi hamda 2-ilovada ko'rsatilgan hisoblash tartibiga muvofiq jamlanma ma'lumot tayyorlanadi.

III bob. Balans hisob-kitoblarning ma'lumot bilan ta'minlanishi

8. Iste'mol tovarlari hajmida import ulushini shakllantirishda asosiy ma'lumot manbai sifatida statistika hisoboti shakllari hisoblanadi (mazkur

⁵ Tashqi savdo bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash Adliya vazirligi tomonidan 2007- yil 20- sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan "Davlat va bojxona tashqi savdo statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash uslubiyati to'g'risida"gi 1717- son nizom

⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasining 2018- yil 7- avgustdagi "Respublikadan jismoniy shaxslar tomonidan olib chiqib ketilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari hisobini yuritish va eksport hajmida aks ettirish to'g'risida Bitim". Davlat statistika qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2018- yil 19-20- iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini kesib o'tuvchi jismoniy shaxslar tomonidan, bojxona statistikasida hisobga olinmaydigan, olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarning umumiy hajmini hisoblash (baholash) bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori

statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

1-Jadval

T/r	Statistika kuzatuvlari shakli		
	Shakl indeksi	Davriy- ligi	Nomi
1.	1 korxona	Yillik	Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot
2.	1 kb	Yillik	Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti
3.	1 birja	Yillik	Birja faoliyati to'g'risida hisobot
4.	1 fx	Yillik	Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot
5.	1 qx (tashkilot)	Yillik	Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot
6.	4 dx shakli	Choraklik	Dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobot
7.	1 kb (qx) (1 kb shakliga ilova)	Yillik	Mikrofirma va kichik korxonaning qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisoboti

Bundan tashqari hisob-kitoblarda qo'shimcha vazirlik va idoralarning ma'lumotlaridan ham foydalaniladi.

9. Iste'mol tovarlari resursida import ulushini baholash Statistika agentligining sanoat, qishloq xo'jaligi va ekologiya, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmalari hamda makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi ma'lumotlari asosida Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi tomonidan 3-ilovadagi Sxemaga asosan hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

IV bob. Yakuniy qoidalar

10. Ushbu uslubiy nizom statistika organlarida statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan.

11. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Iste'mol tovarlari resursida
import ulushini baholash
bo'yicha uslubiy nizomga
1-Ilova

Iste'mol tovarlari ro'yxati

T/r	Kod MST	Tovar guruhlari va nomi
OZIQ-OVQAT TOVARLARI		
1	0111	Don va dukkakli ekinlar jami (sinov vaznida)
2	01135	Kartoshka
3	01131	Sabzavot
4	0113	Poliz ekinlari
5	0122	Meva va rezavorlar
6	0121	Uzum
7	141	Go'sht (so'yilgan vaznda)
8	01452	Sut
9	01472	Tuxum, mln. dona
10	1011	Qayta ishlangan va konservalangan go'sht
11	1012	Qaynatilgan va konservalangan parranda go'shti
12	1013	Go'sht va parranda go'shtidan tayyorlangan mahsulotlar
13	1020	Qayta ishlangan va konservalangan baliq, qisqichbaqasimon va molyuskalar
14	1031	Qayta ishlangan va konservalangan kartoshka
15	1032	Meva-sabzavot sharbatlari
16	1039	Qayta ishlangan va konservalangan meva-sabzavotlar
17	1041	Hayvon va o'simlik yog'i va moylari
18	1042	Margarin va shunga o'xshash oziq-ovqat yog'lari
19	1051	Sut mahsulotlari va pishloq
20	1052	Muzqaymoq
21	1061	Un va don mahsulotlari
22	1062	Kraxmal va kraxmal mahsulotlari
23	1071	Saqlash muddati uzoq bo'lmagan non, unli qandolat va tort mahsulotlari
24	1072	Saqlash muddati uzoq bo'lgan non, unli qandolat va tort mahsulotlari
25	1073	Makaron, kuskus va shunga o'xshash un mahsulotlari
26	1081	Shakar
27	1082	Kakao, shokolad va shakarli qandolat mahsulotlari
28	1083	Qayta ishlangan choy va kofe
29	1084	Ziravorlar
30	1085	Tayyor ovqat mahsulotlar
31	1086	Gomogenlashtirilgan va parhez mahsulotlar
32	1089	Boshqa guruhlariga kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlari
33	1101	Distillangan spirtli ichimliklar
34	1102	Uzum vinolari
35	1103	Sidr va boshqa mevali vinolar
36	1104	Boshqa distillangan achitqi ichimliklar
37	1105	Pivo
38	1107	Alkogolsiz ichimliklar; mineral suv va boshqa shisha ichimlik suvi
NOOZIQ-OVQAT TOVARLAR		
39	1310	Ip va to'qimachilik iplari
40	1320	To'qimachilik matolari
41	1392	Tayyor to'qimachilik mahsulotlari (kiyimdan tashqari)
42	1393	Gilam va gilam mahsulotlari
43	1411	Teri kiyimlari
44	1412	Mahsus kiyimlar
45	1413	Boshqa tashqi kiyimlar

T/r	Kod MST	Tovar guruhlari va nomi
46	1414	Ichki kiyimlar
47	1419	Boshqa kiyim va aksessuarlar
48	1420	Mo'ynali buyumlar
49	1431	Qo'lda va mashinada to'qilgan paypoq va trikotaj buyumlari
50	1439	Boshqa trikotaj yoki to'qilgan buyumlar
51	1512	Jomadonlar, sumkalar va shunga o'xshash mahsulotlar
52	1520	Oyoq kiyim
53	1629	Boshqa yog'och, po'kak, somon va qoplama materiallardan buyumlar
54	1722	Maishiy va sanitariya-gigiyenik qog'oz mahsulotlari va dush buyumlari
55	1723	Kanselyariya mollari
56	2020	Pestitsid va boshqa agrokimyoviy mahsulotlar
57	2041	Sovun va yuvish vositalari, tozalash va abraziv vositalari
58	2042	Parfyumeriya va kosmetika
59	2051	Portlovchi moddalar
60	2120	Farmatsevtika vositalari
61	2219	Boshqa kauchuk buyumlari
62	2223	Plastmassadan qurilish materiallari
63	2229	Boshqa plastik mahsulotlar
64	2313	Shisha idishlar
65	2341	Sopol va bezak buyumlar
66	2571	Pichoq va vilkalar
67	2593	Simli mahsulotlar, zanjir va kamon
68	2599	Boshqa guruhlarga kiritilmagan tayyor metal mahsulotlar
69	2630	Aloqa uskunalari
70	2640	Elektrik maishiy texnika vositalari
71	2652	Barcha turdagi soatlar
72	2670	Optik asboblari va fotoapparatlar
73	2680	Magnetik va optik ma'lumot tushuvchilar
74	2720	Akkumulyator va batareykalar
75	2740	Elektr yoritish moslamalari
76	2751	Elektrik uy jihozlari
77	2752	Elektrik bo'lmagan maishiy texnika
78	2825	Sanoat sovutkichlar va shamollatish uskunalari
79	2829	Boshqa guruhga kiritilmagan umumiy guruhga kiruvchi uskunalari
80	2894	To'qimachilik, tikuvchilik, mo'yna va charm buyumlari ishlab chiqarish uskunalari
81	2910	Avtotransport vositasi
82	3012	Dam olish va sport kemalari
83	3091	Mototsikllar
84	3092	Velosiped va nogiron aravachalari
85	3100	O'tirish uchun mebel va uning qismlari
86	3102	Oshxona mebellari
87	3109	Boshqa mebellar
88	3212	Zargarlik buyumlari va shunga o'xshash mahsulotlar
89	3213	Zargarlik buyumlarning taqlidi (bijuteriya) va shunga o'xshash mahsulotlar
90	3220	Musiqiy asboblari
91	3230	Sport buyumlari
92	3240	O'yin va o'yinchoqlar
93	3250	Tibbiyot va stomatologiyada foydalaniladigan asbob uskunalari
94	3299	Boshqa guruhlarda ko'rsatilmagan boshqa mahsulotlar

Iste'mol tovarlari resursida
import ulushini baholash
bo'yicha uslubiy nizomga
2-Illova

Iste'mol tovarlari resursi balansi va import ulushini hisoblash tartibi

Iste'mol tovarlari guruhi nomi	T_r (trln. so'm)	Z_b	I_{ch}	I	E	O_i	Z_o	I_u
1	2 = (3+4+5-6-7-8)	3	4	5	6	7	8	9=5/2*100%
JAMI ISTE'MOL TOVARLARI								
shu jumladan:								
OZIQ-OVQAT TOVARLARI								
NOOZIQ-OVQAT TOVARLARI								

T_r – iste'mol tovarlari resursi;

Z_b, Z_o – ishlab chiqaruvchi korxonalar, ulgurji va chakana savdo tashkilotlarida tovarlarning mos ravishda hisobot yilning boshiga va oxiriga zaxiralar miqdori;

I_{ch} – tovarlar ishlab chiqarish;

I – tovarlar importi;

E – tovarlar eksporti;

O_i – oraliq iste'mol;

I_u – iste'mol tovarlari resursida import ulushi, %da.

Iste'mol tovarlari resursida
import ulushini baholash
bo'yicha uslubiy nizomga
3-Ilova

Iste'mol tovarlari resursida import ulushini baholash SXEMASI

Bosqichlar	Tadbirlar	Mas'ullar	Muddat
I bosqich	O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari hajmi va ularni hisobot davri boshiga va oxiriga qoldiqlari hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni tovarlar kesimida Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasiga taqdim etadi	Sanoat statistikasi boshqarmasi	10-iyun
II bosqich	O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqilgan qishloq xo'jaligi oziq-ovqat iste'mol tovarlari hajmi va ularni hisobot davri boshi hamda oxiriga qoldig'i hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni ayrim tovar guruhlari kesimida Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasiga taqdim etadi	Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi	10-iyun
III bosqich	"Resurslar va ishlatilish" jadvallariga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqilgan va import qilingan tovarlar guruhlarning oraliq iste'moli to'g'risidagi ma'lumotlarni Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasiga taqdim etadi	Makro-iqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi	10-iyun
IV bosqich	Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi vakolatidagi chakana va ulgurji savdo korxonalarida yil boshi va yil oxiriga iste'mol tovarlarning qoldig'i hamda iste'mol tovarlari eksporti va importi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olib yuqoridagi tarmoqlardan olingan ma'lumotlar bilan birga jami iste'mol tovarlari resursi, shu jumladan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bo'yicha ma'lumotlarni shakllantiradi	Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi	1-iyul
V bosqich	Ushbu uslubiy Nizomning II bobidagi formula orqali import qilingan iste'mol tovarlarining jami iste'mol tovarlari, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlardagi yakuniy baholash ishlarini amalga oshiradi hamda yakuniy natijalarni foydalanuvchilarga taqdim etadi	Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi	10-iyul